



## SHARQ MUTAFAKKIRLARNING SHAXSNI SENSOR VA IJODIY FIKRLASHI HAQIDA

Bayxanova Mavluda G'ulomovna

*O'zbekiston Respublika IIV 1 sonli Toshkent akademik litsey*

*Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarning shaxsni sensor va ijodiy fikrlash haqida bayon etilgan.*

*Kalit so'zlar: pedagog, obyekt, predmet, shaxs*

Ijodiy fikrlash masalasi hamma zamonlarda faylasuflar, psixologlar, pedagoglar orasida katta qiziqish uyg'otib kelgan. Biroq, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgacha ijodiy fikrlashning mohiyatini to'liq ifodalovchi, uning xususiyatlarini o'zida to'la mujassam etuvchi ilmiy konsepsiya ishlab chiqilmagan. Uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, umumta'limi muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarning ijodiy fikrlashini shakllantirish esa o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. Ijodiy fikrlash tushunchasining paydo bo'lishi miloddan oldingi birinchi mingyillikka borib taqaladi. Qadimgi Yunonistonda demokratik boshqaruv sharoitida munozara olib borish, o'z qarashlariga boshqalarni ishontirish, narsa-hodisalarda ularning munosabatlarini ko'rish, yangi fikrlar yaratish ko'nikmasi katta ahamiyatga ega bo'lgan. U davrda tasavvur borasida ham keskin raqobat bo'lgan: har bir donishmand va uning maktabi vakillari dunyoni bilishda o'z fikr-mulohazasini haqiqat deb bilib, aynan o'z tasavvurlarining to'g'riligiga ishonganlar. Boshqalarning fikrini qabul qilmaganlar. Ular fikrlar olishuvida qarashlardagi ziddiyatlarni topish usulidan muntazam foydalanganlar. Ijtimoiy taraqqiyot tarixida insonning atrof-muhitni bilishiga doir turlicha yondashuvlar ma'lum. Ana shu yondashuvlarning muayyan vaqtda hukmron mavqeda bo'lgani o'quv jarayoni va ta'lim mazmunining yo'nalishini belgilab beradi. Bilish nazariyasi rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy (IX asr) birinchi bo'lib koinot ob'yektlarining harakatlari hamda erdagi nuqtalarning joylashishini, oy va quyosh harakati, sayyoralarning sutkalik harakati, jadval ko'rinishida aks ettirib, tajriba-kuzatish va tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, alloma yagonalik tamoyilini ishlab chiqqan, induksiya va deduksiyaning mohiyatini aniqlagan, muammolarni hal etishning algoritmik metodini yaratgan. Bu ilmiy muammolarni hal etish jarayoni o'z-o'zidan ijodiy fikrlash malakasini egallaganlikni talab qiladi.

O'rta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Beruniy, Ibn Sino va boshqalar shahar turmush tarzini jamoaning etuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Forobiy fikricha, har bir inson o'z tabiatiga ko'ra, "oliy darajadagi etuklikka intiladi", bunday etuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishish mumkin. Uning ta'kidlashicha, "madaniy jamiyat va madaniy shahar shunday bo'ladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobardir, kishilar o'rtasida farq bo'lmaydi, har kim o'zi



istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod yashaydilar", – deb ta'kidlab o'tgan.

Ilmiy bilishning uch bosqichli g'oyasini ilgari surgan arab olimi Al-Kindiy (IX asr) insonning bilishini a) sezgiga oid va b) rasional bilish tarzida ikkiga ajratadi. Sezib bilishning predmeti va ob'yekti barcha jism va moddiy narsalar hisoblanadi. Al-Kindiyning fikricha, sezib bilish aql uchun muhim material beradi.

Alloma faqatgina aql tashqi dunyo haqida haqiqiy bilim va tushunchani o'zlashtirishga qodir, deb hisoblaydi. Abu Nasr Forobiy (X asr) Al-Kindiy g'oyalarining mohiyatini aniqlagan. Biror narsani bilishga intilgan inson, avvalo, uning ma'lum holatini o'rganadi, o'zlashtirganlaridan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarni egallashda foydalanadi. Alloma o'z davridagi fanlar tasnifini bergan.

Shuningdek, bilish faoliyatini tashkil etishga oid konkret tavsiyalar ishlab chiqqan. Forobiyning fikricha, inson yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun – qaysi fan bilan shug'ullanishidan qat'i nazar quyidagi uchta shartga amal qilishi kerak:

- 1) fan asosida yotuvchi barcha tamoyillarni yaxshi bilish;
- 2) ushbu tamoyil va ma'lumotlar asosida zarur xulosani chiqarish, ya'ni, ijodiy mulohaza yuritish qoidalarini bilish;
- 3) nazariy bilimlarni isbotlab berish va boshqa olimlar fikrlarini tahlil qilish.

Abu Ali ibn Sinoning bilish nazariyasida sabab haqidagi ta'limot alohida o'rin tutadi. U sabab tushunchasini: a) aniq sezish asosida anglanadigan va b) yashirin holatlarni tahlil etish asosida tushuniladigan sabablarga ajratadi va hodisaning mohiyati uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash yo'li bilan anglanishi mumkin deb hisoblaydi. Alloma ushbu gnoseologik qoidani o'zining tabiblik amaliyoti, kasalliklarni ularning simptomlari bo'yicha va dorilar ta'sirini kuzatish asosida aniqlagan. Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha esa, inson tabiiy narsani, ko'rish mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan narsani aql bilan farqlay olish, yangilikni bilishga alohida e'tibor qaratish, sabab-oqibat bog'lanishlarini ilmiy tushunish zaruriyatini ang'ay olish uchun bilimlarini oshira boradi. Alloma bilishni uzluksiz, to'xtovsiz davom etadigan jarayon sifatida tushunadi. Uning fikricha, insoniyat borliqning haqiqiy mohiyati, hozircha ma'lum bo'lmagan jihatlarini kelajakda, albatta, bilib boraveradi. Mifologik fikr faoliyatining boshqa shakllariga nisbatan ijodiyva o'z shakllari bo'yicha aniq, hissiy-obrazli, jamoaviy-ongsiz hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Chunki u reallikni maxsus metaforik umumlashtirishlar, tasniflash va o'ziga xos emosional-intellektual tahlil orqali izohlashga urinadi. Manbalarni tahlil qilish shuni oydinlashtiradiki, fikr – bu shunchaki tasavvur mahsuli emas, balki shaxslarning hayotiy faoliyatida va ularning o'zaro ta'sir ko'rsatuvini ta'minlaydigan faol intellektual kuchdir. Olimning fikricha, aql hodisalarning sirini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o'zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo'q va hamma bilimlarni tez egallash mumkin emas. Shuning uchun inson o'zi bilib olgan narsalar bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o'rganishga intilishi kerak. Uning fikricha, inson bilish, tushunish,



fikrlash, muhokama qilish, o'ylab topish singari iste'dodga ega. Har bir muammo yuzasidan mulohaza yuritar ekanmiz, shuningdek, sharq allomalarini ilmiy nazariy qarashlarini hozirgi kun talablari bilan bog'lash o'rinlidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqarova M., Yunusov R., Yo'ldashev M., Muhammedova D. O'zbek tili praktikumi. – T.: TDPU, 2009.
2. Azimov I., Saparniyozova M. Ona tilidan ma'ruzalar va testlar majmuasi. – T.: 2010. TDPU
3. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalar. —Pedagogik ta'liml jurnali. 2005, 6-son, 15-17-betlar.
4. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –T.: 2006.
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)